



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SANOAT VA SAVDO VAZIRLIGI

MINISTRY OF INVESTMENT, INDUSTRY AND TRADE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUYRUQ 25-i

«1 » marz 2024-yil

### **O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldaggi PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazoratining 2024-yil uchun ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalari va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar xodimlari komplaens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisning vakolati doirasidagi talablarini bajarishga majbur ekanliklari belgilansin.

3. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2021-yil 8-sentabrdagi 70-p sonli "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'ining 5-bandı;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2021-yil 14-oktabrdagi 77-p sonli "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.

4. Ish yuritish va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i S.Mamadaliyeva mazkur buyruqni Vazirlik tizimining barcha xodimlariga yetkazilishini ta'minlasin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

L.Kudratov



O'zbekiston Respublikasi  
Investitsiyalar, sanoat va savdo  
vazirligining 2024-yil \_\_-fevraldag'i  
*25*-son buyrug'iga  
- ilova

**O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat  
va savdo vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo'yicha komplaens nazorati faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi  
NIZOM**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalari va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati faoliyati, maqsadi hamda Komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassisning (keyingi o'rinnlarda – Bosh mutaxassis) vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatları, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniлади:

**Vazirlik** – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi;

**korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati faoliyati** – Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarda korrupsiya qarshi kurashish, uning oldini olish, xalqaro standartlarga muvofiq komplaens nazorati tizimini joriy etish, aniqlangan huquqbuzarliklarga nisbatan belgilangan vakolat doirasida chora ko'rish, korruption xavf-xatarlarni kamayitirish bo'yicha chora-tadbirlar;

**korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati obyekti** – Vazirlik markaziy apparati, tizimiga kiruvchi tashkilotlar va hududiy bo'linmalari;

**korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati tadbiri** – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati obyektlarida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rishga qaratilgan Bosh mutaxassis tomonidan amalga oshiriladigan jarayon.

**Vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar** - O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi va Eksportni rag'batlantirish agentligi.

3. Bosh mutaxassis o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujatlarga, Vazirlik Hay'ati qarorlari, Vazirlik buyruqlari shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Bosh mutaxassis Vazirlikda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rishga mas'ul hisoblanadi.

## **2-bob. Vazirlikda Bosh mutaxassis faoliyatini tashkil etish**

5. Bosh mutaxassis o'z faoliyatida bevosita vazirga bo'ysunadi.

6. Bosh mutaxassis Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinnlarda – Agentlik) bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

7. Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi.

Bunda, Vazirlik tomonidan Agentlikka vazirning Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.

Ushbu taqdimnomada Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko'rsatiladi. Taqdimnomaga xodimni lavozimidan ozod etish sabablari va motivlarini tasdiqlovchi hujatlar ilova qilinadi.

8. Agentlik tomonidan Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan Bosh mutaxassis ta'qib qilinayotganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lsa, ushbu masalada Bosh mutaxassis bilan suhbat o'tkazilishi mumkin.

9. Quyidagilar Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:

Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

Bosh mutaxassisning zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda.

10. Taqdim etilgan hujatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko'rib chiqilib, tegishli Vazirlikka Bosh mutaxassisni lavozimidan ozod etishni

kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat taqdim etiladi.

### **3-bob. Bosh mutaxassis faoliyatining maqsadi, vazifa va funksiyalari**

11. Bosh mutaxassisning asosiy maqsadi Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xattiharakatlar sodir etilishining oldini olish, Vazirlik xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Vazirlikda korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

12. Quyidagilar Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

Vazirlikda korrupsiyaga oid huququzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

13. Bosh mutaxassis o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) *Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:*

Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun vazirga kiritadi;

Vazirlikning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Vazirlik tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarinida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi.

*b) Vazirlikda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:*

Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

Vazirlik tomonidan o'xshash huquqbazarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Vazirlik xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Vazirlikda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va Vazirlik bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Vazirlik xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Vazirlik xodimlariga yetkazadi;

Vazirlik faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarlilagini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlikda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda va vazir talabiga ko'ra Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida vazirga ma'lumot kiritib boradi;

c) *Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:*

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

Vazirlik xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Vazirlik xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq Vazirlikning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar xodimlari va fuqarolar o'rtaida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Vazirlikning rasmiy veb-saytidagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Vazirlik xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Vazirlikning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlardagi korrupsiyaviy xattiharakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarolarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlardagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma (shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiylar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlар va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Vazirlik faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariha hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

e) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan Vazirlik zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlari yuboradi va ularning so'rovlariha javob berishda ishtirok etadi;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariha muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

14. Bosh mutaxassisga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **3-bob. Bosh mutaxassisning huquq va majburiyatları**

15. Bosh mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Vazirlik xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbazarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Vazirlik rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

Vazirlikning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirop etish;

tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Bosh mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Vazirlikda jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan to'g'ri yuqori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga ma'lumotnomalar kiritish;

har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni Agentlikka taqdim etish.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

17. Bosh mutaxassis korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi.

18. Bosh mutaxassis faoliyatining natijadorligi Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

Bosh mutaxassis faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Bosh mutaxassis faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

#### **5-bob. Yakuniy qoidalar**

19. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Investitsiyalar, sanoat va savdo**  
**vazirining 2024 yil 04.03-dagi 257-son**  
**buyrug‘iga 2- ilova**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komplaens nazoratining 2024-yil uchun**  
**ISH REJASI**

T.r.	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.1	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va o‘z vaqtida yangilab borish.	<p>Ichki idoraviy hujjatlarni zaruratga qarab yangilab borish:  <i>korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;</i>  <i>odob-axloq qoidalar;</i>  <i>korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;</i>  <i>manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom;</i>  <i>aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti;</i>  <i>xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnomा;</i>  <i>kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomা;</i>  <i>ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomা;</i>  <i>korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;</i>  <i>korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti;</i>  <i>korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament;</i>  <i>davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom.</i></p>	2024 yil fevral	B.Ibadullaaev U.Xusanov
	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlarning joriy etish va	<p>Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari: kamida 4 ta aloqa kanali (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil)ni tashkil etish.</p> <p>Rasmiy veb-saytda va boshqa OAVlarda korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari haqidagi</p>	2024 yil fevral	

1.2	korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallarini tashkil etish.	<p>ma'lumotlarni, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarni joylashtirib borish.</p> <p>Rasmiy veb-saytda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisobtlarni e-anticor.uz platformasiga joylashtirib borish.</p>		B.Ibadullaev S.Bagramov
1.3	Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish	<p>Vakant o'rnlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish tizimini joriy etish.</p> <p>Rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish, rotatsiya to'g'risidagi e'lonlar va axborotlarni berib borish.</p> <p>Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish.</p> <p>Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatini joriy etish.</p>	2024 yil doimiy	B.Ibadullaev Z.Marupova U.Xusanov
1.4	Vazirlikda manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash	<p>Xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish.</p> <p>Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazish.</p> <p>Manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlansa, uni tartibga solish choralarini ko'rish.</p> <p>Kontragentlar ustidan tekshiruvlar o'tkazish.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobtlarni sifatli olib borish.</p>	2024 yil doimiy	B.Ibadullaev Z.Marupova M.Ubaydullaev S.Xayitova
1.5	Vazirlik faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ko'rيلayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish	<p>Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish.</p> <p>aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar bo'yicha va monitoring natijalariga ko'ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish.</p> <p>Korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzzgan xodimlarga jazo-choralarni qo'llash.</p>	2024 yil doimiy	B.Ibadullaev S.Mamadalieva S.Xayitova Z.Marupova

2.1	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish	Vazirlikning barcha funksiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish.	2024 yil may	B.Ibadullaev U.Xusanov Z.Marupova
3.1	Vazirning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini ko'rsatuvchi tadbirlarni tashkil etish.	<p>Vazir va uning o'rribbosarlari xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatining mavjudligi, uning xodimlar e'tiboriga yetkazilganligi, hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarida ko'rib chiqish.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorat tuzilmasi tuzilganligi, uning zarur resurslar, shtat birlklari va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlash.</p> <p>Vazir va o'rribbosarlari tomonidan OAV va tadbirlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chiqishlarini tashkil etish.</p>	2024 yil may	B.Ibadullaev Z.Marupova M.Ubaydullaev S.Bagramov
4.1	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish	<p>Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirish hamda korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rivoja etishini ta'minlash.</p> <p>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish.</p> <p>Vazirlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalarni ishlab chiqish.</p> <p>Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo'lgan funksiyalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish.</p>	2024 yil iyun	B.Ibadullaev U.Xusanov Z.Marupova
5.1	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish,	Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tadbirlar tashkil etish.	2024 yil iyul	S.Bagramov B.Ibadullaev

	ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tarqatiladigan materiallar, qo'llammalar, ijtimoiy audio va videoroliklarni olish va xodimlarga yetkazish.		
--	--	--	--	--